

UDK: 796.332(575.1)

FUTBOL FENOMEN SIFATIDA: MAZMUN-MOHİYAT
ФУТБОЛ КАК ФЕНОМЕН: СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ
FOOTBALL AS A PHENOMENON: ITS ESSENCE AND CONTENT

Irmatov Dilyor Yunusbekovich

Fargʻona davlat universiteti falsafa kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Futbol bugungi kunda dunyodagi eng ommabop va keng tarqalgan sport turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat sport musobaqasi, balki ijtimoiy, madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ham eʼtirof etiladi. Millionlab insonlar futbol bilan shugʻullanadi, uni tomosha qiladi va qoʻllab-quvvatlaydi. Futbolning jahon miqyosidagi ommaviyligi uning jamiyat hayotining turli sohalariga taʼsir koʻrsatish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda. Har qanday ijtimoiy hodisani chuqur anglash uchun uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan futbolning genezisi, yaʼni paydo boʻlish manbalari va shakllanish jarayonlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Futbolning ilk koʻrinishlari qadimgi Xitoy, Yunoniston, Rim hamda boshqa sivilizatsiyalar tarixida uchraydi. Turli xalqlarning toʻp bilan oʻynaladigan oʻyinlari keyinchalik zamonaviy futbolning shakllanishiga zamin yaratgan. XIX asrga kelib Angliyada futbol qoidalarining standartlashtirilishi natijasida ushbu oʻyin mustaqil sport turi sifatida rivojlana boshladi.

Futbolning evolyutsiyasi uning mazmun va mohiyatida yuz bergan oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Dastlab oddiy jismoniy mashgʻulot va hordiq chiqarish vositasi sifatida qaralgan futbol vaqt oʻtishi bilan professional sport turi, xalqaro musobaqalar tizimi va yirik ijtimoiy institutga aylandi. Zamonaviy futbol yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda taktik fikrlash, strategik rejalashtirish va jamoaviy hamkorlikni ham talab etadi. Shu sababli futbolning rivojlanish jarayonini faqat sport nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va madaniy jihatlardan ham oʻrganish zarur. Bugungi kunda futbol yosh avlodni sogʻlom turmush tarziga yoʻnaltirish, ularda vatanparvarlik, intizom, masʼuliyat va jamoaviylik kabi fazilatlarni shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, futbol mamlakatlar oʻrtasidagi doʻstlik aloqalarini mustahkamlash, milliy gʻurur va birdamlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Jahon futbolida ilm-fan va texnologiyalar yutuqlarining keng qoʻllanilishi esa ushbu sport turining yanada takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur maqolaning maqsadi futbol tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning tarixiy genezisi va evolyutsion rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda zamonaviy jamiyatdagi oʻrni va ahamiyatini yoritishdan iboratdir.

Kalit soʻzlar: futbol, futbol tushunchasi, futbol genezisi, futbol evolyutsiyasi, sport tarixi, zamonaviy futbol, jamoaviy oʻyin, sport madaniyati, jismoniy tarbiya, strategik tafakkur, ijtimoiy institut, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, ommaviy sport, sport texnologiyalari.

Аннотация. Футбол в настоящее время является одним из самых популярных и широко распространённых видов спорта в мире. Он признаётся не только как



Date: 7th July-2026



спортивное соревнование, но и как сложное социальное явление, обладающее значительным социальным, культурным и воспитательным значением. Миллионы людей занимаются футболом, смотрят его и поддерживают. Глобальная популярность футбола расширяет его влияние на различные сферы общественной жизни. Для глубокого понимания любого социального явления важно изучение его происхождения и истории развития. В этом контексте генезис футбола, то есть источники его возникновения и процесс формирования, представляет собой актуальную научную проблему. Ранние формы футбола встречаются в истории древнего Китая, Греции, Рима и других цивилизаций. Различные народные игры с мячом стали основой формирования современного футбола. К XIX веку стандартизация правил футбола в Англии способствовала становлению игры как самостоятельного вида спорта.

Эволюция футбола тесно связана с изменениями его содержания и сущности. Изначально рассматриваемый как простое физическое упражнение и форма досуга, футбол со временем превратился в профессиональный вид спорта, систему международных соревнований и важный социальный институт. Современный футбол требует не только высокой физической подготовки, но и тактического мышления, стратегического планирования и командного взаимодействия. Поэтому развитие футбола следует изучать не только с точки зрения спорта, но и с социально-философской, педагогической и культурной перспективы. В настоящее время футбол является важным средством формирования здорового образа жизни молодёжи, воспитания патриотизма, дисциплины, ответственности и командного духа. Он также способствует укреплению дружеских отношений между странами, развитию национальной гордости и единства. Использование достижений науки и технологий в мировом футболе свидетельствует о его дальнейшем развитии. Цель данной статьи заключается в раскрытии сущности понятия футбола, анализе его исторического генезиса и этапов эволюционного развития, а также определении его роли и значения в современном обществе.

Ключевые слова: футбол, понятие футбола, генезис футбола, эволюция футбола, история спорта, современный футбол, командная игра, физическое воспитание, спортивная культура, стратегическое мышление, социализация молодёжи, патриотизм, спортивные технологии, социальный институт.

Abstract. Football is currently one of the most popular and widely played sports in the world. It is recognized not only as a sporting competition but also as a complex social phenomenon with significant social, cultural, and educational importance. Millions of people play, watch, and support football. The global popularity of football further expands its influence on various aspects of social life. To fully understand any social phenomenon, it is essential to study its origins and historical development. In this regard, the genesis of football, meaning its sources and formation process, is an important academic issue. Early forms of football can be found in the history of ancient China, Greece, Rome, and other civilizations. Various traditional ball games laid the foundation for modern football. By the

Date: 7th July-2026

19th century, the standardization of football rules in England contributed to its development as an independent sport.

The evolution of football is closely connected with changes in its content and essence. Initially regarded as a simple physical activity and form of recreation, football gradually developed into a professional sport, an international competition system, and an important social institution. Modern football requires not only high physical fitness but also tactical thinking, strategic planning, and teamwork. Therefore, the development of football should be studied not only from a sporting perspective but also from social-philosophical, pedagogical, and cultural viewpoints. Today, football is an important tool for promoting a healthy lifestyle among young people, fostering patriotism, discipline, responsibility, and team spirit. It also helps strengthen friendly relations between countries and promotes national pride and unity. The use of scientific and technological advancements in world football demonstrates its continuous development. The aim of this article is to reveal the essence of the concept of football, analyze its historical genesis and stages of evolution, and determine its role and significance in modern society.

Keywords: football, concept of football, genesis of football, evolution of football, history of sport, modern football, team game, physical education, sports culture, strategic thinking, youth socialization, patriotism, sports technologies, social institution.

Kirish. Futbol bugungi kunda dunyodagi eng ommabop va keng tarqalgan sport turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat sport musobaqasi, balki ijtimoiy, madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ham e'tirof etiladi. Millionlab insonlar futbol bilan shug'ullanadi, uni tomosha qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Futbolning jahon miqyosidagi ommaviyligi uning jamiyat hayotining turli sohalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda. Har qanday ijtimoiy hodisani chuqur anglash uchun uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan futbolning genezesi, ya'ni paydo bo'lish manbalari va shakllanish jarayonlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Futbolning ilk ko'rinishlari qadimgi Xitoy, Yunoniston, Rim hamda boshqa sivilizatsiyalar tarixida uchraydi. Turli xalqlarning to'p bilan o'ynaladigan o'yinlari keyinchalik zamonaviy futbolning shakllanishiga zamin yaratgan. XIX asrga kelib Angliyada futbol qoidalarining standartlashtirilishi natijasida ushbu o'yin mustaqil sport turi sifatida rivojlana boshladi.

Dolzarbligi. Jamiyatda futbol o'zining evolyusiyasi mobaynida turli davrlarni boshdan kechirgan. XX asr futboli asosan, jismoniy kuchga va kurashlarga asoslangani bilan o'ziga xoslik kasb etadi. O'z navbatida, mazkur davrning o'zini ham ikki qismga ajratish mumkin. Jahon chempionatlari o'tkazila boshlangan XX asrning 30- yillaridan to 70- yillarigacha bo'lgan davrda futbolchilar maydonda katta kuch sarflagan va to'p uchun kurashlarda gavda bilan o'ynash hamda raqib bilan yelkama-yelka kurashlar o'yin davomida ko'p kuzatilgan.

Shuning uchun ham ushbu davr futbolchilarining gavda tuzilishi boshqa davrlarnikidan biroz farq qilib, ular futbolchidan ko'ra ko'proq og'ir atletika sporti vakillarini eslatardi. Gollandiyada total futbolning vujudga kelishi esa futbol aqlga



Date: 7th July-2026



asoslangan sport turi ekanligi, maydonda bir-birini tushunish, jamoaviylik va futbolchilarda universallik (hamma himoyada, hamma hujumda) sifatleri muhim ekanligini ko'rsatib berdi. XX asrning 80 – 90-yillarida futbol bitta futbolchi atrofida qurilishi, butun jamoa aynan ushbu futbolchiga o'ynashi kabi jihatlar muhim o'rin egalladi. Bunga misol sifatida Diego Armando Maradona (Argentina), Mishel Platini (Fransiya), Romario (Braziliya), Zayniddin Zidan (Fransiya), Roberto Badjo (Italiya), Ronaldo Luis (Braziliya)larning faoliyatini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan futbolchilar terma jamoalarida emas, balki faoliyat yuritgan klublarida ham murabbiylar suyangan sportchilar hisoblangan.

Ko'plab futbol mutaxassislari va muxlislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, dunyo tarixidagi eng yaxshi chempionat sifatida Meksikadagi 1986 yilda o'tkazilgan musobaqa tan olingan. Meksika mezbonlik qilgan chempionat shunisi bilan boshqalardan farqlanadiki, deyarli barcha terma jamoalar turnirga o'z yulduzlari bilan tashrif buyurgan edi. Bevosita stadiondan muxlislar eng ko'p kuzatgan chempionat ham Meksika maydonlarida bo'lib o'tgan edi. Ushbu jihat XX asr so'ngiga kelib, dunyo futboli deyarli bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatadi. XX asrning so'nggi chempionati (Fransiya– 98) da ham finalga yo'l olgan va natijada chempion bo'lgan Fransiya terma jamoasi tarkibida Zayniddin Zidan hal qiluvchi ahamiyatga kasb eta olgan va jamoaning muvaffaqiyatida bosh rolni bajargan.

Tadqiqotning maqsadi futbol fenomenining shaxs va jamiyatdagi o'rni orqali futbolning jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“futbol” tushunchasiga ilmiy ta'rif berish, genezisi va evolyutsiyasini tadqiq etish asosida uning jamiyat madaniy yuksalishidagi ahamiyatini ochib berish;

zamonaviy jamiyatning ijtimoiy qiyofasini belgilashdagi futbol funksiyalarini asoslash hamda shaxs ijtimoiylashuvida futbolning fenomen sifatidagi ijtimoiy rolini aniqlash;

O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida futbolni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy omillarini ochib berish;

futbol fenomenini shaxs va jamiyatga ijtimoiy ta'sirini aniqlash hamda yoshlarda “milliy iftihor”, “milliy g'urur”, “vatanparvarlik” tushunchalarini kamol toptirishning falsafiy mexanizmlarini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda futbolning tarixi, rivojlanishi, sport turi sifatidagi ahamiyati, muxlislik, jamiyatning ma'naviy hayotida tutgan o'rni va rolini ochib berish A.Imomxo'jayev E.Yusupov, E.P.Xodjayev, A.Tulenova, A.Niyozov, A.Yerejepov, Sh.Sultonov, M.Yuldashev, O.Axmedov [1]kabi bir qator sportchi, faylasuf va jurnalist olimlar va ilmiy izlanuvchilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, futbolning fenomenologik xususiyatlari, madaniyat shakli sifatida o'rganish, ishqibozlik jamoalari masalalari tadqiq etgan olim Klinton David Godfrey [2], bugungi kunda futbol aqlga asoslagan global fenomen hodisa sifatidagi ahamiyatiga doir

Date: 7th July-2026

tadqiqotlar Kristina Ayzenberg [3] ishlarida ko‘rish mumkin, shu bilan birga iqtisodi zaif davlatlarning professional futbolchilari migratsiyasi va davlat iqtisodiyotdagi ulushiga oid izlanishlar Pier Lanfranch va Metyu Teylor [4] tadqiqotlaridan o‘rin olgan.

Futbolning jamiyat va shaxs kamoloti muammosi rossiyalik S.Tukmanov, M.Mitrafanov, P.Goryunov, I.Novikova [5], va boshqa tadqiqotchilarning dissertatsiyalarida sotsiologik, huquqiy nuqtai nazardan, Patrik fon Liuven, Y.A.Litinskaya, S.I.Kurilo, S.N.Alyoshina [6] lar ishlarida esa tarixiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Muammoga pedagogik yondashuv V.Y.Dayev, Al Owaydat Raid, A.A.Shamardin[7]singari olimlar tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

XXI asrga kelib, dunyo futbolida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Yangi asr futboli sport jamoatchiligiga yangi qiyofada namoyon bo‘la boshladi. Endi jahon futbolida jismoniy kuch va tayyorgarlik bilan bir qatorda futbolchilardan intellektual salohiyat ham talab etila boshladi. “Futbolchilarning maydonda va uning tashqarisida erkin fikrlay olishlari katta natijalarga fundament bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ijodkor sifatida sportchini erkin fikrlay olishi uning maydonda harakatlar samaradorligini ta‘minlaydi” [8]. Maydonda futbolchilarning aql bilan harakatlanishi eng avvalo muxlislar uchun zavqli hisoblanadi. Lui van Gal ta‘biri bilan ifodalaganda, maydonda tinmay yugurib yurish nodonlarning ishi, aqlli va to‘pni nazorat qiladigan futbolchilarni qadrlaymiz.

Futbolchilarning o‘yin davomida fikrlashi va maydonni ko‘ra olishi zamonaviy futbolning ajralmas qismiga aylandi. Futbol jamoasi tizimli ishlaydigan mexanizm bo‘lib, undagi har bir pozitsiya vakili o‘ziga belgilangan hudud va vazifa uchun javobgardir. “Har qanday qo‘lga kiritiladigan g‘alaba askarlar soni bilan emas, to‘g‘ri tadbir va reja orqali amalga oshadi” [9]. Yangi davr futboli futbolchilardan yuqori darajada fikrlash tezligi, o‘yinga tanlangan puxta va aniq rejani talab etmoqda. Mazkur tizimning mukammal ishlashida futbolchilarning bir-birlarini o‘zaro tushunib harakatlanishlari jamoaning natijalariga katta ta‘sir etuvchi omil hisoblanadi.

“Intellektual futbol har bir futbolchining jamoa tarkibida ishlash potentsiali, murabbiy tomonidan berilgan topshiriqlarni mohiyatan anglay olish qobiliyatidir. Zamonaviy futbolda jamoa tarkibida o‘zining gollari bilan samara keltirayotgan har qanday to‘purar hujumchi o‘z jamoasi himoyalayotgan paytda mudofaa qobiliyatini namoyish etishi va jamoaga yordam berishi talab etiladi. Futbolchilarning endi maydonda ko‘proq fikrlashi, aql bilan o‘yin namoyish etishi muxlislarga sifatli futbol taqdim etadi” [10]. Demak, o‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, bugungi kun zamonaviy futboli har qanday professional futbolchidan o‘ziga xos universallikni talab qiladi. Jamoaviylik va o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlashning aqlga tayanishi zamonaviy futbolning yangi ko‘rinishi sifatida e‘tirof etish mumkin.

Jamoaviy futbolning shakllanishi futbolchilarning maydon va uning tashqarisida bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari futbol akademiyalarida o‘z aksini topdi. “Barselona” klubi futbol akademiyasi bo‘lgan “La Masiya”da jamoaviy-intellektual futbolning o‘ziga xos yondashuvini ko‘rish mumkin. Akademiyaning shiori ham “Biz bir oilamiz!”.

Xulosa

Date: 7th July-2026

Bugungi zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatdagi aksariyat sohalarga kirib bordi. Axborot-kommunikatsiyaning tezkorlik bilan rivojlanishi sun'iy intellekt ko'lamini kengaytirdi va insonlarni turmushidagi roli ortib bormoqda.

Futbolchilarning maydondagi fikrlashi va to'g'ri ko'ra olishi zamonaviy futbolning ajralmas qismiga aylandi. Futbol jamoasi tizimli ishlaydigan mexanizm bo'lib, undagi har bir pozitsiya vakili o'ziga belgilangan hudud va vazifa uchun javobgardir. Mazkur tizimning mukammal ishlashida futbolchilarning bir-birlarini o'zaro tushunib harakatlanishlari jamoaning natijalariga muhim ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Futbol jamoalarining ijobiy natijalarni qayd etishi jamiyatda millionlab muxlislarni kayfiyatini ko'taradi, mehnat unumdoligini oshiradi, bolalarda sportga bo'lgan qiziqish sezilarli ortadi, yoshlarda vatanparvarlik ruhini yuksaltirishda muhim vosita bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Имомхўжаев А. Футбол – қувончим, дардим, фахрим: Монография. Тошкент: Шарқ, 1996. 205 б.; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент: Университет, 1998. 38 б.; Ходжаев П., Туленова А., Ниёзов А., Ережепов А. Футбол сабоқлари. Тошкент. 2013. 155 б.; Султонов Ш. У. Футбол ўйининг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи. Тошкент. 2014. 77 б.; Юлдашев М. (М. Шукурзода). Ўзбек футбол, кеча, бугун, эртага. Тошкент: Шарқ пресс, 2015. 158 б.; Аҳмедов О. Орзунинг шонли йўли-Тошкент: Янги китоб, 2021. –Б. 150.
2. Clinton David Godfrey. Attitudes Towards Education in a Professional Football Academy: The Scholars' Perspective. University of Central Lancashire. 2017. 249 p.
3. Christiane Eisenberg(Hg.). Fußball, soccer, calcio. Ein eng-lischer Sport auf seinem Weg um die Welt. München, 1997.
4. Pierre Lanfranchi, Matthew Taylor. Moving with the Ball. The Migration of Professional Footballers. Oxford, 2001.
5. С. Тукманов Особенности труда правового статуса профессионального футболиста. Дисс. Авторефат. Москва. 2007; М.Митрафанов. Управление профессиональными футбольными клубами. Дисс.. автореф... Санкт-Петербург. 2011; П. Горюнов. Формальные и неформальные структуры в среде футбольных болельщиков Санкт-Петербурга. Дисс.. автореф... Санкт-Петербург. 2015; И.Новикова. Дворовый футбол как фактор формирования социального капитала подростков в условиях современного города. Дисс.. автореф. Саратов. 2010.
6. Патрик фон Лиувен. Философия футбола. Киев: Издать книгу, 2022. 1360 с. Е.А. Литинская. Аксиология спорта высших достижений в современном обществе. Дисс.. автореф.. Москва. 2013; С.И. Курило. Социально-философская концепция международного спорта. Дисс... автореф... Нижний Новгород. 2000; С.Н. Алёшина. Актуализация возможностей человека в современном спорте: социально-философские аспекты. Дисс... автореф. – Таганрог. 2008.
7. В.Е. Даев. Оптимизация спортивного отбора и ориентации футболистов по игровым амплуа на этапе углубленной специализации. Дисс.. автореф... Махаловка. 2007; Аль Овайдат Райд. Комплектование игровых линий в детско-юношеских



Date: 7th July-2026

футбольных командах на основе комплаксной оценки подготовленности спортсменов. Дисс.. автореф.. Волгоград. 1999; А.А. Шамардин. Целевая функциональная подготовка юных футболистов. Дисс.. автореф.. Волгоград. 2009.

8. Hannah J. Fudball in England und Deutschland von 1961 bis 2000. – Bonn, 2020. – P. 50.

9. Амир Темур. Темур тузуклари.... – Б. 27.

10. Martin Rooney. Coach to Coach. – New Jersey: Wiley, 2020. – P. 100.

